SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342



Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5I2Y2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G‘aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo‘rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o‘g‘li — yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon: (99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 2-son (Fevral, 2025). - 630 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna
SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI 13-19

Matyakubov Xamdam Xamidjanovich
MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO‘YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA’SIR VA HAMKORLIK 20-24

Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin
TURKISTONDA JADIDLARNING TA’LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN 25-29

Хуррамова Саодат Хабибовна
ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА 30-37

To‘ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi
ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI 38-44

Elboyeva Shaxnoza
AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR VA BU BORADA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI 45-50

Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O‘g‘iloy
TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO‘LGAN TARIXI HAQIDA 51-54

Tojiev Alisher Sultannazirovich
MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI 55-60

Bekbayev Bekjon
XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN 61-67

Salayev Umrbek Kadambayevich
JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA’ZI CHIZGILAR 68-71

Ro‘ziyeva Mashxura Abdimuminovna
LO‘LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 72-78

Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi
ICHKI SAVDO QO‘QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) 79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Kazakov Olim Sabirovich
XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH 85-89

Исламутдинова Дина Файзрахмановна
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 90-98

Alikulov Mehmonali Salahiddin o‘g‘li
QISHLOQ XO‘JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA YO‘NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI 99-106

Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI 107-113

Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod
CHO‘L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LARI 114-121

Aliyarov Olim Abdug‘aparovich
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI 122-132

Komilov Bakhtiyorjon
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA 133-144

Djumanov Saitmurod Alibekovich
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 145-150

Yariyev Sherzod Shukurjanovich
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI 151-155

Matkarimov Feruz Bekturdiyevich
MINTAQADA TO‘QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH 156-160

Xaydarova Durdona, To‘xtayeva Moxinur
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 161-166

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
ABU NASR FOROBIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI 167-175

Nosirxo‘jayeva Gulnora Abduqahhorovna
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA’NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI 176-179

Xoliqov Yunus Ortiqovich
BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI 180-184

Berdaliyeva Sevara
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB “KUTADGU BILIG” 185-191

Parpiyev Muhammadjon Tolibovich
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI 192-197

Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi
IBN ARABIY “VAHDATUL VUJUD” TA’LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI 198-202

Ulug‘murodov Elyor Saydulloevich
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI 203-206

Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING
DIALEKTIK MAZMUNI 207-213

Xasanov Boburjon Xakimovich
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI 214-219

Shokirov Mubin Rustamovich
MILLIY O‘ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT 220-225

Ismoilov Maxammadixon
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV
MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI 226-230

Shokirov Murod Rustamovich
YANGI O‘ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI 231-234

Hamroyev Saidjon Sanoyevich
YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR
TARAQQIYOTNI TA’MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O‘RNI 235-239

Sharopov O‘lmasbek Shuhrat o‘g‘li
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI
(TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) 240-243

Ulug‘ov Jasur Nasirdinovich
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING
IJTIMOIY HAYOTGA TA’SIRI 244-249

Qodiraliyev Abror Tojimurot o‘g‘li
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI
QARASHLARI MISOLIDA 250-253

Ibragimov Kudrat
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL
DAVLATLARI 254-260

Oripov Axmadjon Muxammadjonovich
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY
TALQINI 261-267

Ibragimova Zulayxo Karimbayevna
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI
VA ASOSIY KOMPONENTLARI 268-274

Abdullayev A’zam Abdiyevich
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM
XUSUSIYATLARI 275-281

Ochilov Azimjon Tuxtamishovich
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING
TARQALISHI 282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Raxmanova Sarvinoz Alisherovna
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA) 286-289

Kaxarova Iroda Sidikovna
MODAL SO‘ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH 290-296

Babadjanova Nazokat Davronbekovna
“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI 297-302

Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD
ALI'S WORK “ULUG‘ SALTANAT” 303-308

Hatamova Kamola Toshmurod qizi
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA 309-316

Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna
TERMINOLOGIYANING O‘ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN
O‘RGANILISHI 317-321

Otajonova Dildor Baxtiyarovna
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING
SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI 322-326

Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS
AMONG THE LANGUAGES 327-331

Xoshimova Oydina Shuxrat qizi
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O‘RNI
VA RANGLAR IFODASI 332-338

Babayeva Iroda
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR
STRUCTURE AND MEANING 339-342

Fozilov Odil Yuldashevich
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK
LANGUAGE 343-346

Raxmonova Dildora Mirzakarimovna
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI
TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING “BAXTSIZ KUYOV” DRAMASI MISOLIDA) 347-351

Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI 352-357

Xamidova Sayyora Nurmatovna
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 358-363

Mengboyev Azizbek Alijon o‘g‘li
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING
CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI 364-368

Hayitova Shohida Erkin qizi
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI 369-373

Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI 374-378

Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O‘RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O‘ZIGA XOSLIGI 379-385

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Мухитдинова Фирюза
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА 386-393

Uzakova Go‘zal Sharipovna
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI 394-403

Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH 404-414

Yakubova Iroda Bahramovna
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI 415-419

Obidov Tolibjon Avezxanovich
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI 420-425

Tuxtashev Sherzod Azimovich
JINOYAT ISHINI TO‘XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI 426-430

Maxamatov Maxmud Maxamataminovich
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI 431-436

Rahmatov Elyor Jumaboyevich
BOJXONA MA’MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ISHTIROKI 437-441

Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI 442-447

Shermatov Nuriddin
RAQAMLI ERADA SUN’IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA 448-455

Juraeva Asal
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS 456-461

Собиров Саидбек Махмудович
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ 462-467

Nurbayev Muzaffar Erkinovich
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH 468-478

Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o‘g‘li
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI 479-485

Xabibullayev Azizillo Lutfullo o‘g‘li
SUN’IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR 486-491

To‘xtayev O‘ktamjon Zarifjon o‘g‘li
MURAKKAB ASHYOLARNING O‘ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI 492-500

Yusupov O‘ktamboy
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI 501-509

Murodxonov Muhammadnur
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O‘RNI 510-518

Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ 519-523

Qudratillayev Xazratali Zokirjon o‘g‘li
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI 524-530

Umarov Abbosjon Asliddin o‘g‘li
SUG‘URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI 531-536

Хайдарова Хилола Анваровна
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ 537-542

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Ibraximov Sanjar Urunbayevich
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIGI 543-547

Karimov Akramjon Zaynobidinovich
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA’LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI 548-554

Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich
7-9 YOSHLI O‘QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O‘YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH 555-561

Karimov Qayum Mamashayevich
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O‘QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH 562-569

Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI 570-576

Qodirov Azamat Muxriddinovich
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA 577-582

Тлеумуратова Абадан Бекбановна
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ 583-585

Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR 586-592

Mamaziyayev Oblaberdi
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI 593-598

Isoqov Murod Madaminjonovich
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI 599-605

Nasriddinova Hulkar Komiljonovna
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI 606-610

Allayeva Hafiza Rustam qizi
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI 611-614

Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI 615-621

Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI 622-625

Elova Sitora Axmatkulovna
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI 626-629

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 2 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 25 January 2025
Accepted: 1 February 2025
Published: 10 Feburary 2025

Article / Original Paper

ECOLOGICAL STATE OF DESERT PASTURES AND WAYS TO IMPROVE THEIR EFFICIENCY

Tangirov Abdukholik Egamovich
Ph.D., acting professor,
Samarkand Institute of Economics and Service.
E-mail: tangirov.abdukholiq@gmail.com

Nurmanov Sherzod Khujayarovich
assistant,
Samarkand State Veterinary Medicine,
Animal Husbandry and Biotechnology University

Abstract. The article examines the current state of degradation of the country's desert pastures and ways to eliminate it, organization of production based on the "Pasture-robbery complex model", which is considered an environmentally friendly technology, and its economic efficiency.

Keywords: pasture, desert-pasture, degradation, productivity, crisis, feed unit, dry mass, water supply, desertpasture animal husbandry, environmentally friendly product, cost, profitability, translator, efficiency.

CHO‘L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LARI

Tangirov Abduxolik Egamovich,
i.f.n., professor vazifasini bajaruvchi, Samarqand
iqtisodiyot va servis instituti

Nurmanov Sherzod Xujayarovich,
assistent Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada mamlakat cho‘l-yaylovlari degradatsiyalanish darajasining hozirgi holati va uni qayta tiklash, ekologik barqarorlikni ta’minlaydigan innovatsion texnologiya “Yaylov-qorako‘lchilik kompleksi” modeli ishlab chiqarishga joriy etish va uning iqtisodiy samaradorligi kabi masallar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: yaylov, cho‘l-yaylov, degradatsiya, hosildorlik, inqiroz, ozuqa birligi, quruq massa, suv ta’minoti, cho‘l-yaylov chorvachiligi, ekologik toza mahsulot, tannarx, rentabellik darajasi, samaradorlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N17

Kirish. Mamlakatimiz hududi (44,8 mln. ga)ning 21,2 mln. gektari tabiiy yaylovlardan iborat. Shundan 17,5 mln. gektari cho‘l-yaylov chorvachiligini parvarishlashga mo‘ljallangan [1]. O‘zbekiston Respublikasi yaylovlarida mayda shoxli mollar jumladan qorako‘l qo‘ylari, echkilar, yirik shoxli mollar, tuyalar va otlar urchitiladi. Yaylovlar ekologik toza chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, aholining go‘sht va go‘sht mahsulotlariga hamda shifobaxsh sut

va sut mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish shuningdek sanoat uchun qimmatli va arzon xom-ashyoning muhim manbaidir.

Materiallar va usullar. Muammoni o‘rganishda respublika yaylovlari va cho‘l-yaylov xo‘jaliklari ma’lumotlaridan foydalanildi.Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, va boshqa usullardan keng foydalanildi.

Natijalar. Cho‘l-yaylov chorvachiligida yaylov chorva mollarining asosiy ozuqa bazasi sifatida xizmat qiladi. Ammo, yaylovlardan foydalanish va uning holati bugungi kun talablariga mutlaqo javob bermaydi. Cho‘l va yarim cho‘llardan iborat cho‘l-yaylov chorvachiligi yaylovlarning 14 foizi suv bilan ta’minlangan emas.

1-jadval

Cho‘l-yaylov chorvachiligi tomonidan foydalanilayotgan yaylov fondi

Viloyatlar	Jami yaylov maydoni, ming ga	Shu jumladan suv bilan ta’minlanmagan	
		ming ga	%
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3461,1	430,0	12,4
Buxoro	2416,0	439,7	18,2
Jizzax	582,0	205,0	35,2
Qashqadaryo	1011,9	122,5	12,1
Navoiy	9245,8	1110,3	12,0
Samarqand	633,2	124,9	19,73
Surxondaryo	407,9	64,6	15,84
Respublika bo‘yicha jami	17558,8	2498,4	14,0

Manba: Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Navoiy viloyatida 1110,3 ming ga, Buxoro viloyatida 439,7, Qoraqalpog‘iston respublikasi 430,0 respublika bo‘yicha esa 2498,4 ming ga yaylovlar suv bilan ta’minlanmagan [2]. Quduqlar bo‘lmaganligi sababli cho‘l-yaylov xo‘jaliklari qo‘ylarni 800-850 ming boshga ko‘paytirish imkoniyatidan foydalana olmayotganligi va mol boqilmaganligi sababli, suv bilan ta’minlanmagan yaylovlar tabiiy ravishda inqirozga uchrayotganligi, soha rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi bilan birgalikda, hududning ekologik muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Keyingi yillarda olingan ma’lumotlarga ko‘ra, respublika cho‘l-yaylovlarining 9 mln. gektarida o‘simliklar degradatsiyasi natijasida hosildorlik 21% ga, 5 mln. ga yaylovda 20-30 % ga va 2,5 mln. ga yaylovda 40 % va undan yuqori darajada pasaygan.

Yaylovlarning inqirozga uchrashi oqibatida ularning yillik hosildorlik ko‘rsatkichlari oxirgi 5 yil davomida 2,4 ts/ga dan 1,84 ts/ga pasaygan. Natijada, tog‘ oldi yarim cho‘l hududida 40,0 ming tonna, gipsli cho‘lda 90,7 va qumli cho‘l hududida 59,4, jami 190,1 ming tonna yaylov ozuqasi tanqisligi vujudga keldi. Hosildorlikning pasayishi Qoraqalpog‘iston respublikasi yaylovlarida-27%, Buxoro viloyatida-18,5, Jizzax viloyatida-16,9, Navoiy viloyatida-26,5, Samarqand viloyatida-10,9 va Qashqadaryo viloyatida-6,2%ni tashkil qiladi [3]. Hozirgi kunda cho‘l yaylovlariga kompleks baho beriladigan bo‘lsa, ularning 58% ini yaxshi yaylovlar, 17% ini o‘rta yaylovlar, 10% ini qoniqarli va 12% ini yaroqsiz yaylovlar toifasiga kiritish mumkin [4].

Yaylovlar inqirozini yuzaga keltiruvchi eng asosiy omil-yaylovlar hanuzgacha o‘z egasini topmaganligi natijasida ulardan uzluksiz va pala-partish foydalanish bo‘lib, ulardan ratsional foydalanish va mavsumiy foydalanish tizimiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omil-ularning suv ta’minotining uzilishidir. Aksariyat suv manbalari (shaxta quduqlari va skvajinalar) hamda cho‘pon uylari, ochiq va yopiq qo‘ralar bundan 60-70 yil oldin ishga tushirilgan bo‘lib, hozirgi kunda ularning ko‘pchiligi ta’mirlashga muhtoj yoki umuman ishdan chiqqan. Rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak yaylovlarni, quduqlarni, cho‘pon uylari, ochiq va yopiq qo‘ralar hamda boshqa ishlab chiqarish obyektlarni modernizatsiyalash zarur.

Tizimidagi ixtisoslashgan qorako‘lchilik xo‘jaliklarida mavjud chorva binolari to‘liq, shaxtali quduqlarning 450 tasi yoki 20,0 foizi, skvajinalarning 247 tasi yoki deyarli 34,0 foizi ta’mir talab hisoblanadi.

O‘rtacha bir quduqqa 7796 gektar yaylov to‘g‘ri kelib, 3,5 mln. gektarga yaqin yaylovlar quduq bilan ta’minlanmagan. Natijada ozuqa xarajatlari solmog‘i 12-15 foiz o‘rniga o‘rtacha 3540 foizni bir qator xo‘jaliklarda esa 50-55 foizni tashkil qilmoqda yoki qo‘shimcha ozuqa sotib olishga bir bosh qo‘yga o‘rtacha 50-60 ming so‘m ortiqcha xarajat qilishga olib kelmoqda.

Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, mollarning tabiiy yaylov ozuqasi bilan ta’minlanishi keskin pasayish oqibatida qorako‘lchilikni rivojlantirishda bir qator muammolar kelib chiqmoqda. Bu muammolarni yechishning asosiy omillardan biri – uning mustahkam ozuqa zaxiralarini yaratish bo‘lib, bu tarmoqda ilm-fan yutuqlarini keng joriy qilish yuqori iqtisodiy samaradorlikka va ekologik barqarorlikka erishishni ta’minlaydi.

Shu bilan birgalikda yer kurrasi o‘simlik dunyosi bir yilda 160 mlrd tonna SO^2 gazini yutib, 120 mlrd tonna kislorodni ishlab chiqarish, ya’ni global isishning oldini oluvchi asosiy ekologik omil ekanligi ma’lum. Shu nuqtai nazardan, yaylov o‘simliklari nafaqat yaylov chorvachiligining ozuqa bazasi, balkim bir kvadrat metr yaylov maydonidagi o‘simliklar 250520 grammgacha SO^2 gazini utilizatsiya qiluvchi muhim ekologik vosita ham hisoblanadi. Shu sababli, yaylovlarning o‘simlik qoplamidan ratsional foydalanish, uni muhofazalash va o‘simlik turlari bilan boyitish hamda yaylov chorvachiligi samaradorligini oshirish, Respublika uchun hozirgi davrning o‘ta o‘tkir muammolaridan biri hisoblanadi.

Joriy etishga tavsiya etilayotgan **ekologik toza texnologiya hisoblangan** “Yaylovqorako‘lchilik kompleksi” modelidagi hisob-kitoblar bir bosh qorako‘l qo‘yi misolida tahlil etilib, amalga oshirildi. Ushbu “Yaylov-qorako‘lchilik kompleksi” modelini qorako‘lchilik fermer xo‘jaliklarida, yuridik maqomga ega bo‘lgan dehqon xo‘jaliklarida va ixtisoslashgan xo‘jaliklarining otarlarida qo‘llash mumkin. Ta’kidlash o‘rinliki, ***“Yashil” iqtisodiyot energiya va resursni tejashga, atmosferaga uglerod chiqarishni kamaytirishga, sof energiyadan foydalanishga asoslanganligida kelib chiqadigan bo‘lsak*** “Yaylov-qorako‘lchilik kompleksi” modelini cho‘l-yaylov chorvachiligi barqaror rivojlanishini ta’minlovchi **“Yashil iqtisodiyot” modeli deb ham nomlash mumkin.**

“Yaylov-qorako‘lchilik kompleksi” modelida qo‘ylarni mavsumiy yaylovlarda boqish cho‘ponning qat’iy nazorati ostida amalga oshiriladi. Qo‘ylarni tabiiy yaylovlarda boqish faqatgina bahor mavsumida, qolgan mavsumlarda esa sun’iy yaylovlarda amalga oshiriladi. Agar 500 bosh qo‘yga ega bo‘lgan ishlab chiqaruvchi subyekt eski, an’anaviy texnologiya bo‘yicha yilni muvaffaqiyatli o‘tkazishi uchun o‘rtacha 2,5-3,0 ts/ga hosildorlikka ega bo‘lgan tabiiy yaylovlardan 1350-1600 ga zarur bo‘ladi [5]. Buncha maydonni xo‘jalik balansida saqlash

va unga soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash mahsulot ishlab chiqarish sarfxarajatlarining, ya’ni ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxining oshib ketishiga, pirovard natijada rentabellikning pasayishiga olib keladi.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, “Sohoba ota” naslchilik xo‘jaligida tabiiy yaylovlarning o‘rtacha hosildorligi 1,8 ts/ga tashkil qilgan holda sun’iy yaylovlarniki 9,2 ts/ga –ni yoki 5,1 barobarga ko‘p bo‘lganligi sababli, mollarning ozuqa bilan ta’minlanish darajasi tabiiy yaylovlarda boqilganda atigi 65,0 foizni, sun’iy yaylovlarda esa 100,0 foizni tashkil qilgan. Demak, boqishning yaylov-qorako‘lchilik kompleksi shaklidan foydalanilsa 961,5 ga yaylov maydonlargina tejalib qolmasdan, balki qo‘ylarni boshqa hudud (o‘tov)larga boqish uchun ko‘chirish, qo‘shimcha ozuqalar sotib olish xarajatlariga ham barham beriladi. Qo‘shimcha ozuqa va qo‘ylarni o‘tovga ko‘chirish xarajatlari hamda yaylovga to‘lanayotgan soliqlarning katta qismini to‘lashdan ozod etilishi tufayli, bir bosh qo‘yga sarflanayotgan xarajatlar keskin qisqarish natijasida qorako‘lchilik iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘ladi. An’anaviy texnologiyada ishlab chiqarish rentabellik darajasi 16,4 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, yaylovqorako‘lchilik kompleksida 80,1 foizga ko‘tarilgan yoki 63,7 bo‘g‘in yuqori.

Yangi, joriy etilgan texnologiya bo‘yicha:

Taklif etilayotgan variantda tabiiy yaylovlardan faqat bahor mavsumida foydalanish tavsiya etiladi. Bu mavsumda tabiiy yaylovlarning hosildorligi yuqori bo‘lib, efemer va efemeroid o‘simliklarning vegetatsiya davri tugamagan bo‘ladi. Bahor mavsumida 1 bosh qorako‘l qo‘yiga kuniga 2,5kg ozuqa(quruq massa hisobida) talab etilib, mavsum(91 kun)da esa 2,28ts ozuqa, yoki suruv(500 bosh)ga 1137,5ts ozuqa kerak bo‘ladi. Bu mavsumda hosildorligi 2,5-3,0(1,3) ts/ga ega bo‘lgan tabiiy yaylovlardan 455,0-379,2(875)ga maydon talab etiladi.

Yozgi mavsumda 1 bosh qorako‘l qo‘yiga 1 kunga 2,5 kg, mavsum(92 kun) davomida 2,3ts ozuqa (quruq massa) hisobida talab etilib, suruvdagi 500 bosh qo‘y uchun esa 1150,0ts ozuqa yoki hosildorligi 2,5- 3,0 (5,7)ts/ga bo‘lgan 460 (202)ga tabiiy yaylov talab etiladi. Hosildorligi 15ts/gani tashkil qiladigan sun’iy yaylovlardan foydalanilganda esa, shuncha miqdordagi qo‘ylarga atigi 76,7 ga yaylov kerak bo‘ladi. Bunda 383,3 ga tabiiy yaylov tejaladi.

Kuz mavsumida ham 1 bosh qorako‘l qo‘yiga kuniga 2,5 kg, mavsum(92 kun) davomida 2,3ts ozuqa talab etilib, suruvdagi 500 bosh qo‘yga esa 1150,0 ts. quruq ozuqa massasi kerak bo‘ladi. Bunda 460 ga tabiiy yaylov talab etiladi. Hosildorligi o‘rtacha 25 ts/gani tashkil qiladigan agrofitotsenoz(sun’iy yaylov)lardan foydalanilganda esa atigi 46,0 ga yaylov kerak bo‘ladi. Kuz mavsumida sun’iy yaylovlardan foydalanilganda 414 ga tabiiy yaylov tejaladi.

Qish mavsumida 1 bosh qorako‘l qo‘yiga kuniga 3,0 kg, mavsum(90 kun)da 2,70 ts ozuqa talab etilib, qishlovga kirgan 500 bosh qo‘y uchun 1350,0 ts quruq ozuqa massasi talab etiladi. Bunda 500 ga tabiiy yaylov talab etiladi. Qishlov mavsumida 25 ts/ga hosildorlikka ega bo‘lgan sun’iy yaylovlardan foydalanilganda esa atigi 54,0ga yaylov kerak bo‘ladi. Qish mavsumida 446 ga tabiiy yaylov tejaladi.

Qorako‘lchilikda sun’iy yaylovlarni yaratish va yaylov aylanmasini joriy qilish natijasida 500 bosh qo‘yga 1350-1600 ga tabiiy yaylov o‘rniga atigi 555,9-631,7 ga yaylov kerak bo‘ladi. Bunda 794,1-968,3 ga yaylovni tejash imkoniyati tug‘iladi.

Yozgi mavsumda foydalaniladigan agrofitotsenozlarda yaylov o‘simliklari tarkibi: butalar (qora saksovulning “Nortuya navi”+ cherkez) – 20%, yarim butalar (izen, teresken) – 40%, ko‘p yillik o‘tlar (astragallar, esparsetlar, erkak o‘t)-40%. O‘tchil o‘simliklar turlari qatoriga qo‘ng‘irbosh, yaltirbosh kabi o‘simliklarni ham qo‘shish mumkin.

Kuzgi-qishki mavsumlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan yaylovlarda o‘simliklar quyidagi nisbatda: butalar (qora saksovulning “Nortuya” navi+cherkez)-40%, yarim butalar (izen, cho‘g‘on, quyrovuq, shuvoq)-60% ekilib agrofitotsenozlar tashkil etiladi. Bu tarkibdagi agrofitotsenozlarni tashkil qilish, yaylovlarning ekologik sharoitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, tuproqda namlikni ko‘proq saqlaydi, qishda yaylovlarni shamoldan ihotalab, yaylovlarning yuza qismidagi unumdor tuproqning eroziyalanishining oldini oladi, natijada yerda namlikning ko‘proq yig‘ilishiga hamda o‘simliklarning yaxshi o‘sib rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi. Pirovard natijada yangi texnologiya asosida agrofitotsenozlar barpo etilgan maydonlarda o‘tchil o‘simliklarning turlari ochiq maydonlarga nisbatan ko‘p bo‘ladi va yaylovlar hosildorligi tabiiy yaylovlarga (2,5-3,0 ts/ga) nisbatan 5-8 baravar (15-25 ts/ga) yuqori bo‘lib, faqat saksovulning o‘zi gektaridan 8-10 ts quruq ozuqa massasi va 2-3 ts urug‘ beradi. SHuningdek, bir tup saksovul o‘simligi to‘rt tonna ko‘chuvchi qumni to‘xtata oladi. 1 gektar saksovulzor yil davomida 1135 kg karbonat angidrid gazini yutib 835 kg kislorod chiqaradi.

Eski-an’anaviy texnologiya bo‘yicha 500 bosh qo‘yga jami 1350-1600ga tabiiy yaylovlar lozim bo‘lsa, yangi-intensiv texnologiyada jami 555,9 ga., shundan atigi 176,7 gasi sun’iy yaylovlar kerak bo‘ladi.

Ko‘p komponentli sun’iy yaylov agrofitotsenozlarini yaratishning afzalliklari shundan iboratki, birinchidan: tarmoqda ekstensiv xo‘jalik yuritish tizimidan, intensiv tizimga o‘tiladi, ikkinchidan: yaylovlardan foydalanishning samaradorligi 2,5-3,0 marta oshadi, uchinchidan: chorva mollariga barqaror, mustahkam ozuqa bazasining ta’minoti yaratiladi.

Qorako‘l qo‘ylarining yaylov ozuqasi bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligi oqibatida *respublikaning sug‘oriladigan maydonlarda yetishtiriladigan ozuqalarini sotib olish hisobiga* katta miqdorda ortiqcha xarajat qilishga olib kelmoqda.

Shu sababli, yaylovlarning o‘simlik qoplamidan ratsional foydalanish, uni muhofazalash, o‘simlik turlari bilan boyitish va yaylov chorvachiligi samaradorligini oshirish hamda *suv taqchilligi kuchayib borayotgan hozirgi davrda suv resurslaridan tejamli foydalanish* O‘zbekiston Respublikasi uchun ham o‘ta o‘tkir muammolaridan biri hisoblanadi.

Bu muammolarni s*uv resurslaridan foydalanmay, tabiiy yomg‘irlar hisobiga* yaylovni himoyalovchi saksovul ihotazorlarini barpo qilish texnologiyasi hamda yuqori hosilli yaylov agrofitotsenozlaridan mavsumiy foydalanish sxemasini qo‘llagan holda yechish mumkin.

Qorako‘l qo‘ylarini yaylovda boqishning amaldagi texnologiyasida suv manbasi (quduq) atrofidagi yaylovlardan yil bo‘yi foydalaniladi, yaylov almashinish tizimi yo‘q, yaylovlarning qo‘y sig‘imi hisobga olinmagan. Masalan 500 bosh qo‘yni bir yil mobaynida yaylovda boqish uchun 400 tonna yaylov ozuqasi zarur. Yaylovlar hosildorligi o‘rtacha 2,5-3,0 ts/ga bo‘lgan taqdirda 500 bosh qo‘y uchun 1500 gektar yaylov zarur bo‘ladi [7]. Hozirgi kunda Samarqand viloyati Nurobod tumani O‘zbekiston xo‘jaligida bir otarga (500 bosh qo‘yga) 314 ga yaylov to‘g‘ri kelmoqda.

Tahlillar ko‘rsatib turibdiki, bir bosh qo‘y yaylovdan 800, kg o‘rniga 188,4 kg ozuqa olmoqda yoki yaylov ozuqasi tanqisligi 611,6 kg, 500 bosh qo‘yga esa 3058, sentnerni tashkil qiladi. *Xo‘jaliklar yetishmagan ozuqani sug‘oriladigan maydonlarda yetishtirilgan pichan va boshqa turdagi xashak hamda omixta yemlarni sotib olish hisobiga qoplamoqda. Bundan tashqari xo‘jaliklar har yili dag‘al xashak jamg‘arish uchun katta miqdorda moddiy va mehnat resurslarini safarbar qilishga majbur bo‘lishmoqda. Bular esa ishlab chiqarish xarajatlari oshib ketishiga olib kelib, soha samaradorligining keskin pasayishiga sabab bo‘lmoqda.*

Taklif etilayotgan innovatsion texnologiya bo‘yicha otarda *tabiiy yomg‘irlar hisobiga* 150ga ko‘p komponentli, yuqori hosilli (25 ts/ga) yaylov agrofitotsenozi yaratilsa, agrofitotsenozlardan 374 tonna, qolgan 164 ga tabiiy yaylovdagi 49 tonna, jami bo‘lib 423 tonna yaylov ozuqasini olish mumkin bo‘ladi [9]. Demak, bu holda hayvonlarni yaylov ozuqasi bilan ta’minlanish darajasi 105,7% ga yetadi. Yaylov ihotazorlarini yaratish va ulardan mavsumiy foydalanishga o‘tish esa tabiiy yaylovlar hosildorligini 20% ga oshirish imkonini beradi. Bunda 164 ga tabiiy yaylovdan olinadigan ozuqa oldingi 49,2 tonna emas, balki 59 tonna bo‘ladi. Ko‘p komponentli agrofitotsenozlar va tabiiy yaylovlardan olinadigan jami ozuqa 374t + 59t = 433 tonnani tashkil qiladi, ya’ni yaylov ozuqasi bilan ta’minlanish darajasi 108,5% ga yetadi. *Bu esa 250 ga sug‘oriladigan maydonda (250X150ts/ga)=375t beda pichanini yetishtirish uchun sarflaniladigan (250X1100m³X5)=1375000m³ suvni tejashga va* otarda har yili ozuqaga sarflanayotgan xarajatlarni (1 kg xashak 1500so‘m, 375000kg x 1500 so‘m= 562,5 mln so‘m) to‘liq tejash imkonini beradi. Demak, har bir otardan olinadigan daromad faqat ozuqa xarajatlarini tejash hisobiga 562,5 mln so‘mga ortadi. Shu bilan birgalikda, *suv resurslaridan foydalanmay, tabiiy yomg‘ir hisobiga* yaylovlar o‘simlik qoplamidagi biologik xilma-xillik ko‘p komponentli yaylovdagi o‘simlik turlari hisobiga (saksovul, cherkez, teresken, cho‘g‘on, izen, quyrovuq, erkak o‘t, esparset) kamida 8-10 turga boyitiladi, yaylov ozuqasi sifati keskin ortadi hamda hozirda cho‘l-yaylov xo‘jaliklarida ozuqa zaxirasini yaratish uchun sarflanayotgan moddiy-texnika resurslari va ishchi kuchini keskin kamaytirish yoki butunlay barham berish imkoniyati vujudga keladi.

Yaylovni himoyalovchi saksovul ihotazorlarini barpo qilishning innovatsion texnologiyasi hamda yuqori hosilli yaylov agrofitotsenozlaridan mavsumiy foydalanishning innovatsion texnologiyasini 1 500 ga tabiiy yaylov maydoniga joriy etishning o‘zi 1 200,0 ga sug‘oriladigan maydoni va 6 600 000 m³suvni tejash imkonini beradi.

2-jadval

Yaylovlardan foydalanish texnologiyalari va ularning samaradorligi

Ko‘rsatkichlar	Texnologiya nomi		
	An’anaviy (500 bosh)	Innovatsion (500 bosh)	Innovatsion (2500 bosh)
Mavjud yaylov maydoni, ga	314	314	1500
Talab qilinadigan yaylov maydoni, ga Shundan: tabiiy sun’iy	1500 1500 -	314 164 150	1500 783 717
Yaylov hosildorligi, ts/ga: tabiiy sun’iy	3,0 -	3,6 25,0	3,6 25,0
Yalpi hosildorligi, ts: tabiiy sun’iy	942,0 -	590,0 3750,0	2818,8 17925,0
Yalpi hosildorlik jami, ts	942,0	4340,0	20743,8
Bir bosh qo‘yga talab qilinadigan yillik ozuqa, kg	800,0	800,0	800,0
Haqiqatda bir bosh qo‘yga to‘g‘ri keladigan yaylov ozuqasi, kg	188,4	868,0	829,7
Ozuqa bilan ta’minlanish darajasi, %	23,6	108,5	103,7

Koʻrsatkichlar	Texnologiya nomi		
	An’anaviy (500 bosh)	Innovatsion (500 bosh)	Innovatsion (2500 bosh)
Qoʻylar, bosh	500	500	2500
Olinadigan qoʻzilar, bosh	500	500	2500
Shundan: oʻstirishga, bosh	275	275	1375
qorakoʻl teriga, dona	225	225	1125
Yetishtiriladigan mahsulot miqdori:			
goʻsht, ts	81,0	81,0	377,0
jun, ts	12,2	12,2	63,0
barra goʻsht, dona	225	225	1125
sut, ts	135,0	135,0	675,5
Ozuqa xarajatlarini tejash hisobiga olinadigan foyda, mln. soʻm	0	562,5	2700,0

Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Tejalishi mumkin boʻlgan yer va suvdan oziq-ovqat ekinlarining boshqa turlarni parvarishlashda foydalanish imkoniyati vujudga keltiradi. Shu bilan birgalikda faqat ozuqa xarajatlarini 2700,0 mln soʻmga tejalishi va ekologik toza qorakoʻlchilik mahsulotlarning xususan, oʻstirishga qoldiriladigan qoʻzilar sonini 275 boshdan 1375 boshga, qorakoʻl teri 225 donadan 1125 donagacha, tirik vaznda goʻsht yetishtirishni 81,0 sentnerdan 377,0 sentnerga, juni 12,2 sentnerdan 63 sentnerga, barra goʻshtini 225 donadan 1125 donaga va qoʻy sutini 135 sentnerdan 675,5 sentnerga koʻpaytirish mumkin boʻladi(2-jadval). Bu esa arzon, ekologik toza, shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlar yetishtirishni va uning xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biri boʻlib xizmat qilishi muqarrar.

Demak, “Yaylov-qorakoʻlchilik kompleksi” modelini yaylovlar degradatsiyaga barham beradigan, qum koʻchishining oldini oladigan, yashil yaylov maydonlarni yaratishga va choʻlyaylov chorvachiligining “Yashil iqtisodiyot”ga ya’ni barqaror rivojlanishiga imkon beradigan ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyasi deb hisoblashimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Respublika choʻl-yaylovlarining 9 mln. gektarida oʻsimliklar degradatsiyasi natijasida hosildorlik 2,4 ts/ga dan 1,84 ts/ga yoki 21% ga, 5 mln. ga yaylovda 20-30 % ga va 2,5 mln. ga yaylovda 40 % va undan yuqori darajada pasaygan. Natijada 190,1 ming tonna yaylov ozuqasi tanqisligi vujudga keldi.

Yaylovlar degeredatsiyasini qayta tiklash va choʻl hududlarda ekologik barqarorlikka erishish maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz:

— qum va tuz boʻronlariga barham berish uchun saksovul ihotazorlarini barpo qilish;

— yaylov inqirozini toʻxtatish maqsadida ulardan mavsumiy foydalanish tizimini joriy etish;

— yoz, kuz va qish mavsumlarida foydalanishga moʻljallangan sun’iy yaratilgan, koʻp komponentli, yuqori hosilli yaylov agrofitotsenozlarini har bir otarlar joylashgan hududlarda kamida 100-150 gektardan barpo qilish;

— eski texnologiya boʻyicha 500 bosh qoʻyga jami 1350-1600 ga tabiiy yaylovlar lozim boʻlsa, yangi-intensiv texnologiyada jami 555,9 ga., shundan atigi 176,7 gasi sun’iy yaylovlar kerak boʻladi. Bunda, yaylovlardan foydalanishning intensivlik darajasi qariyb 3 martaga oshib, har 500 bosh qoʻy hisobiga oʻrtacha 794,1-968,3 ga tabiiy yaylov tejaladi.

— yaylov chorvachiligi bilan shug‘ullanuvchi barcha xo‘jaliklarda ekologik toza innovatsion texnologiya “Yaylov-qorako‘lchilik kompleksi” modelini joriy etish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yaylovlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-538-sonli Qonuni. 20.05.2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta’min-lashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-24-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyuldagi «Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5178-sonli Qarori.
4. Jumaev N.A., Ataniyazov J.X., Iqtisodiyot barqarorligi nimalarda namoyon bo‘ladi? https://tfi.uz/en/news-uz.
5. Kayumov F.K. i dr.Karakulevodcheskiy podkompleks i yego rolь v formirovanii kon’yunkturы rынka. T. ''Uzinformagroprom''. 1993 g.
6. Nurgaliev N. Degradatsiyaga uchragan yaylovlardan foydalanish samaradorligini oshirish *https://cyberleninka.ru/viewer_images/19453199/f/1.png*
7. Tangirov A.E. Qorako‘lchilik quyi majmuasi va uni modernizatsiyalash “Star-Media Press” nashriyoti, Toshkent, 2017.152 b.
8. Fayzieva SH.SH. Agroklasterlar asosida innovatsion iqtisodiyot samaradorligini oshirish. Innovatsion texnologiyalar, J. Maxsus son 2021. 90-94 b.
9. Tangirov, A. E. (2022). Opportunities to develop students' professional competencies based on the integration of disciplines. International Journal on Integrated Education, 5(3), 36-44.
10. Tangirov, A. E. (2022). CHO‘L-YAYLOV CHORVACHILIGIDA KLASTER BOSHQARUV TEXNOLOGIYaSI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH. Academic research in educational sciences, (Conference), 336-341.
11. Narbaev Sh.K. Yaylovlardan foydalanish tizimini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi materiallari misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-T. 2018 y. 52 bet.
12. Rajabov F.T., Xidirov R.X. O‘zbekiston hududida cho‘l-yaylov chorvachiligini rivojlantirish xususiyatlari//Academic Research in Educational Sciences. Volume 4 | Issue 2 | 2023. 2126 bet.
13. Shodiev B.T. Qorako‘lchilikda yaylovlardan samarali foydalanish yo‘llari//Innovatsion texnologiyalar/Innovative technologies. №1(41) – 2021. 90-95 bet.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).